2024-YIL
11-NOYABR

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL

# SCIENCE AND INNOVATION

## SPECIAL ISSUE

## "MEDICAL TOURISM IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION: PROBLEMS, PROSPECTS AND INNOVATIONS"

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TURIZM QO'MITASI
TOURISM DEVELOPMENT INSTITUTE
MDIS Tashkent
TOSHKENT VILOYATI HOKIMLIGI
ALFRAGANUS UNIVERSITY
ScienceInnovation

ISSN: 2181-3337
SCIENTISTS.UZ

# International Scientific Journal

# SCIENCE AND INNOVATION

**SPECIAL ISSUE "MEDICAL TOURISM IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION: HALLENGES, PROSPECTS, AND INNOVATIONS"**

**November, 2024**

This issue was published on the basis of the materials of the II international scientific and practical conference "Medical Tourism in the Context of Globalization: Challenges, Prospects, and Innovations" held in cooperation with Scientific Research Institute For Tourism Development on November 11-12, 2024.

**Tashkent 2024**

# TIBBIY TURIZMDAGI INNOVATSIYALAR VA YANGI YONDASHUVLAR

**Ne'matova Gulruh**
Alfraganus university "Sharq filologiyasi" kafedrasi katta o'qituvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.14048732

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada tibbiy turizm tavsifi va uning mazmun-mohiyati, tibbiy turizmni rivojlantirishda ommaviy axborotning o'rni va ahamiyati, mazkur turizm turi xususida yozilgan ilmiy maqola va qo'llanmalar va undagi materiallar tahlili keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *tibbiy turizm, marketing, sayohat, strategik sektor, BTT, Sudxanshu Joshi, Medical Tourism Magazine, ekoturizm, portal, G20.*

***Abstract.*** *This article presents the description of medical tourism and its essence, the role and importance of mass information in the development of medical tourism, the analysis of scientific articles and manuals written about this type of tourism and the materials in it.*

***Keywords:*** *medical tourism, marketing, travel, strategic sector, BTT, Sudhanshu Joshi, "Medical Tourism" magazine, ecotourism, portal, G20.*

***Аннотация.*** *В данной статье представлены описание медицинского туризма и его сущности, роль и значение массовой информации в развитии медицинского туризма,анализ и научных статей и пособий, написанных об этом виде туризма,и материалов в нем.*

***Ключевые слова:*** *медицинскй туризм, маркетинг, путешествия, стратегической сектор, БТТ, Судханшу Джоши, журнал "Медицинскй туризм", экотуризм, портал, G20.*

## Kirish

Hozirgi yuksak rivojlanish davrida turizmning ahamiyati mamlakatlar uchun beqiyos bo'lib, hatto ayrim davlatlar faqatgina shu sektor orqali mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirib keladi. Turizm bir necha sabablarga ko'ra mamlakat rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Bugungi kunda hukumatimiz tomonidan turizm sohasiga milliy iqtisodiyotning strategik sektori maqomining berilishi, uning istiqbolda rivojlanishiga katta zamin yaratmoqda. Shu bois yurtimizga sayohat qiladigan mahalliy va xorijiy turistlarga sifatli xizmat ko'rsatish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishi lozim.

Turizm mamlakat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega. Doktor Sudxanshu Joshi mashhur kitoblaridan birida shunday deydi: "Turizmning iqtisodiy, infratuzilmaviy, madaniy va ijtimoiy afzalliklari uni taraqqiyotning muhim elementiga aylantiradi"[18].

**Metodologiya.** Mamlakatimizda so'nggi yetti-sakkiz yil ichida barcha sohalarda innovatsion texnologiyalarga asoslangan yangi loyihalar amalga oshirildi va ish faoliyatini yuritish uchun yangicha muhit shakllandi. Bu kabi imkoniyatlar ayniqsa, turizm tarmog'ida o'zining samarasini ko'rsatmoqda. Ma'lumki, turizm mamlakat uchun moliyaviy jihatdan bir qator afzalliklarga ega. Turistik joylar davlatning muhim obyekti hisoblanib, bunday hududlarga alohida hukumat e'tibori jalb etiladi. Ushbu jarayonning yanada jadallashishi va xalqaro maydonda O'zbekistonning turistik salohiyatini ko'rsatish, shuningdek, turistlar oqimini oshirishda OAVning, jurnalistlarning zimmasiga katta mas'uliyat yuklanadi. Mazkur mavzuni yoritishda jurnalistlar aniq maqsadlar asosida turizm sohasining o'ziga xosliklari, uning turlari va turistik obyektlarning mavjud imkoniyatlarini teran anglagan holda boy tarixiy-ilimiy ma'lumotlarga

[18] Joshi, Sudhanshu. Sustainable Tourism Supply Chain Management: Influences, Drivers, Strategies, and Performance. Springer. New York. 2022. 34-b.

suyanishi zarur. Hozir xalqaro mediasferada turizmning har xil turlariga mos keladigan materiallar tayyorlanmoqda.

Butunjahon turizm tashkilotining statistik ma'lumotlariga koʻra, 2025-yilga borib xalqaro turistlarning soni 2,6 mlrd kishini tashkil qilishi, turizmdan olinadigan daromad 3 trln AQSH dollari boʻlishi kutilmoqda. Mashhur tahliliy portallardan biri "Siteminder" nashriga koʻra, 2026-yilga kelib, turizm jami 370 million ish oʻrinlarini tashkil etadi. Bu esa dunyodagi barcha ish oʻrinlarining 9 tadan 1 tasiga toʻgʻri keladi. Hindiston (7,5%) Xitoydan (7,0%) oshib ketganligi sababli Janubiy Osiyo, ma'lum masofada sayohat va turizm YAIMning 2026-yilga qadar uzoq muddatli oʻsishi (7,1%) boʻyicha eng tez oʻsayotgan kichik mintaqa boʻladi. 2026-yilga qadar sayyohlikning yalpi ichki mahsulotda ulushi ortishi boʻyicha eng tez oʻsayotgan G20 mamlakatlari Xitoy, Hindiston, Indoneziya, Meksika va Janubiy Afrikadir. Umuman olganda, turizm salohiyatidan foydalanish kelajakda muhim omillardan biri boʻlib qolaveradi[19].

**Natijalar.** Tibbiy turizm sogʻlomlashtirish turizmi sifatida ham tanilgan boʻlib, uning maqsadi dam olishdan tashqari, salomatlik bilan bogʻliq tibbiy va jarrohlik yordamini oʻz ichiga oladi. Tibbiy turizmni rivojlantirishda ommaviy axborot vositalarining roli juda muhim boʻlib, jamoatchilikning xabardorligini oshiradi, shuningdek, u tibbiy turizm yoʻnalishlari va obyektlarini targʻib qilishga yordam beradi. Doktor Prem Jagyasining qoʻllanmasiga koʻra, "samarali tibbiy turizm marketingi strategiyalarni davriy qayta koʻrib chiqish bilan birga strategik bosqichma-bosqich harakatlarni oʻz ichiga oladi[20]. Bundan tashqari mashhur olim J.Sneyderning "Tibbiy turizm va milliy sogʻliqni saqlash tizimlari: institutsionalistik yondashuv" maqolasida tibbiy turizmni xalqaro turizmning eng muhim yoʻnalishi sifatida tavsiflaydi. Olimning fikriga koʻra, daromad keltirishi boʻyicha, tibbiy turizm aniq yoʻnaltirilgani bilan ahamiyatlidir[21].

Xulosa qilib aytganda, tibbiy maqsadlardagi turizm ham jurnalistika uchun muhim subyekt boʻla oladi. Masalan, "Medical Tourism Magazine" taxminan 20000, "The Medical Tourism Association" 30000 adadda bosilsa, "Patients Beyond Borders" onlayn nashri taxminan oylik 50000 koʻrilishlar soniga ega. Bunday statistikalar tibbiy turizm nafaqat sayyohlarga, balki media ixlosmandlari uchun ham qiziqarli ekanini bildiradi.

**Muhokama.** Sayohatchilarning maqsadi seminarlar tashkil etish va norasmiy joylarda oʻzaro hamkorlik qilish orqali mezbon davlat madaniyatini oʻrganish, turli ijodiy tabdirlarda ishtirok etish. Ijodkorlik va innovatsiyalarni yoqtiradiganlar uchun ijodiy turizm eng yaxshi tanlovdir. Mashhur olimlar Greg Richards va Krispin Raymondlarning fikricha, ijodiy turizm "tashrif buyuruvchilarga kurslarda faol ishtirok etish va oʻrganish tajribasi orqali oʻzlarining ijodiy salohiyatini rivojlantirish imkoniyatini beruvchi turizm" deb ta'riflanadi[22]. Ijodiy turizm – bu sayyohlar uchun oʻziga xos boʻlgan tadbirlarda qatnashish orqali mahalliy madaniyatni yanada oʻziga xos tarzda his qilish usulidir. Soʻnggi yillarda ijodiy turizm tobora ommalashib bormoqda, chunki koʻproq odamlar noyob va haqiqiy sayohat tajribasini qidirmoqda. Bunda esa, jurnalistlar tomonidan aynan shu mavzudagi kontentlar yaratilishi yaxshi qoʻllanma vazifasini oʻtamoqda.

[19] Travel & Tourism in 2026. https://www.siteminder.com/r/hotel-distribution/online-travel-agents/travel-tourism-2026-16-fascinating-stats-demonstrating-power-tourisms-growth/

[20] Dr. Premm, Guide to Medical Tourism Marketing – News, Update, Trends, Research and Social Media Marketing.https://drprem.com/medical-tourism/guide-to-viable-medical-and-wellness-tourism-marketing-in-hard-times/

[21] Snyder, J. Medical tourism and national health care systems: an institutionalist approach. Globalization and Health, 14(1), 2018. 1-10.

[22] Richards, Greg and Raymond, C. "Creative Tourism." ATLAS News 23. 2000. 16-b.

# Contenst / Mundarija / Содержание


| | | |
|---|---|---|
| 1 | **Голышева Е.В., Мамметоа Б.И.,** МЕДИЦИНСКИЙ ТУРИЗМ: ГЛАВНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ РОСТА | 10 |
| 2 | **Халилов Сирожиддин Шерали ўғли,** ТИББИЁТ ТУРИЗМИ ЙЎНАЛИШИДА КИРУВЧИ ТУРИСТИК ОҚИМНИ РАҒБАТЛАНТИРИШ ВОСИТАЛАРИ | 16 |
| 3 | **Abdurahimova Dilnoza Abduvoxid qizi, Xatamova Zumradxon Nazirjonovna,** FARG'ONA VILOYATIDA TIBBIYOT TURIZMINI RIVOJLANISHI MASALASI TARIXIDAN | 20 |
| 4 | **Махмудова Гузаль Алишеровна, Камалова Шахноза Музаффаровна,** МЕДИЦИНСКИЙ ТУРИЗМ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ – ПРОБЛЕМЫ, ПЕРСПЕКТИВЫ И ИННОВАЦИИ | 23 |
| 5 | **Madumarova Gulnora Sobirovna,** PSYCHOLOGICAL TOURISM AS A WAY TO RESOLVE INTERNAL CONFLICTS | 26 |
| 6 | **Kuliyev OzodAbdurakhmanovich, Sharopov Sadullo Shukurilloyevich,** DOES MEDICAL TOURISM CONTRIBUTE TO GROWTH IN THE HEALTHCARE SECTOR? | 32 |
| 7 | **Abdurazzakova Shohista Mahmudbek qizi, Ro'zibayeva Zulayho Baxrombek qizi,** O'ZBEKISTONDA TIBBIYOT TURIZMI SOHASINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI | 38 |
| 8 | **Рўзиев Бобир Акрамович,** ҚАШҚАДАРЁ ВИЛОЯТИДА САФАРИ ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ | 42 |
| 9 | **Eshmurodov Rustam Sayfiddin o'g'li,** GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA TIBBIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA KADRLARNING O'RNI VA MUAMMOLAR | 48 |
| 10 | **Mamedsaliyeva Guzal Azimjon qizi, Ilkhomova Gulnoza Zainiddin qizi,** MEDICAL TOURISM DEVELOPMENT TRENDS IN THE WORLD AND UZBEKISTAN | 52 |
| 11 | **Nasretdinova Aziza Adxamjonovna,** GLOBALLASHUV DAVRIDA TIBBIY TURIZMNING MUAMMOLARI | 58 |
| 12 | **Ne'matova Gulruh,** TIBBIY TURIZMDAGI INNOVATSIYALAR VA YANGI YONDASHUVLAR | 62 |
| 13 | **Nurmatova Oltinoy Alixo'ja qizi,** TIBBIY TURIZMDA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISH: YANGI YO'NALISHLAR VA RIVOJLANISH STRATEGIYALARI | 65 |
| 14 | **Nurmatova Inobatxon Avazbek qizi, Abdumannobov Abdulboriy Abdumajid o'g'li, Ibroximova Madina Maxmudjon qizi,** ANDIJON VILOYATIDA MAVJUD TURISTIK KURORT ZONALARINI TAHLIL QILISH HAMDA TURISTLARNI JALB ETISH USULLARI | 70 |
| 15 | **Nurullayev Hoshimjon Hamidovich,** MEDICAL TOURISM: THE ROLE IN MAINTAINING HEALTH AND INCREASING LIFE EXPECTANCY OF THE POPULATION | 73 |
| 16 | **Jumaniyazova Ozodaxon Zaripboy qizi,** XORAZM VILOYATIDA MADANIY-TARIXIY TURIZMNING O'RNI | 80 |
| 17 | **Tairova Dilnoza Gayratovna,** BUTUNJAHON TURIZM TASHKILOTI O'ZBEKISTONDAGI O'RNI | 86 |
| 18 | **Sodiqov To'lagan Botirovich,** MEDICAL TOURISM - BUSINESS ON TRAVEL WITH HEALTH BENEFITS | 89 |
| 19 | **Tashbayev Zohid,** MAMLAKATIMIZNI TIBBIY TURIZM YO'NALISHIDA MARKAZIY OSIYODA MINTAQASINING ENG RIVOJLANGAN MARKAZIGA AYLANTIRISH ISTIQBOLLARI | 94 |
| 20 | **Алланазарова Гавхар Кунназар кизи,** ПЕРСПЕКТИВЫ МЕДИЦИНСОКГО ТУРИЗМА В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ: НОВЫЕ ТРЕНДЫ И ИННОВАЦИИ | 97 |
| 21 | **Хужаева Шахноз Абсаматовна,** ТИББИЙ ТУРИЗМНИНГ ИЖОБИЙ ВА САЛБИЙ ЖИҲАТЛАРИ | 103 |
| 22 | **Умаров Х.,** РАЗВИТИЯ МЕДИЦИНСКОГО ТУРИЗМА В ТАДЖИКИСТАНЕ | 106 |
| 23 | **Эрназаров Баркамол, Султанова Камола Абдураимова,** СОЗДАНИЕ И ПРОДВИЖЕНИЕ БРЕНДА УЗБЕКИСТАНА КАК НАПРАВЛЕНИЯ САНАТОРНО-КУРОРТНОГО ТУРИЗМА | 109 |
| 24 | **Юсубова Махлие Икрамовна,** ИННОВАЦИИ И СМАРТ-ТЕХНОЛОГИИ В МЕДИЦИНСКОМ ТУРИЗМЕ УЗБЕКИСТАНА: ПОТЕНЦИАЛ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ | 114 |
| 25 | **Matsapayev Akmal Qalandarovich,** TIBBIY TURIZMNI INNOVATSION RIVOJLANISH BOSQICHLARI | 119 |
| 26 | **Хужаева Шахноз Абсаматовна,** ДУНЁ ТИББИЙ ТУРИЗМИ: ЭНГ ОММАБОП ЙЎНАЛИШЛАР | 123 |
| 27 | **Шамиев Голиб Уктамович,** ЎЗБЕКИСТОНДА ТИББИЙ ХИЗМАТЛАР БОЗОРИДА ИНСОН КАПИТАЛИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ОРҚАЛИ ТИББИЙ ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИМКОНИЯТЛАРИ | 128 |
| 28 | **Xakimov Azimjon Shavkatovich, Tulkinov Ozod Nodir o'g'li, Sharipov Bahtiyor Oybek o'g'li,** MEDICAL TOURISM IN UZBEKISTAN: KEY DESTINATIONS AND INTERNATIONAL APPEAL | 134 |
| 29 | **Qurbonov Nurulla Qo'ziboy O'g'li,** TIBBIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO STANDARTLAR VA DAVOLASH USULLARINI JORIY ETISH | 138 |
| 30 | **Nigora Buxarova,** СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ МЕДИЦИНСКОГО ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ: СОЗДАНИЕ ТУРИСТСКИХ КЛАСТЕРОВ | 143 |
| 31 | **Artikova Aziza, Sayfutdinova Nasibakhon, Seydullaeva Sayora, Khoshimova Madinabonu, Tursunmurotova Madinabonu,** POTENTIAL AVENUES FOR ENHANCING THE QUALITY OF MEDICAL TOURISM SERVICES | 148 |
| 32 | **Azizova F.L., Tulyaganova D.S.,** TOSHKENT SHAHRIGA DAVOLANISH UCHUN KELAYOTGAN NOGIRON BOLALAR OQIMINING TIBBIY TURIZMDAGI AHAMIYATINI O'RGANISH | 151 |
| 33 | **Гусейнов Хафиз Фехруз оглы,** СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ЛЕЧЕБНО-ОЗДОРОВИТЕЛЬНОГО ТУРИЗМА В АЗЕРБАЙДЖАНЕ | 156 |
| 34 | **Akhmadaliev Shokhrukh Shukhratovich, Akhmadalieva Maftuna Abdumanon kizi,** DEVELOPMENT LEVEL OF MEDICAL TOURISM FOR PEDIATRIC SERVICES IN FERGHANA VALLEY | 162 |
| 35 | **Xashimova Shaxnoza Shuxrat qizi,** ITALIYA GASTRONOMIYA TAJRIBASI | 167 |
| 36 | **Зокирова Наргиза Баходировна,** ВЫЯВЛЕНИЕ СТРУКТУРНО-ФУНКЦИОНАЛЬНЫХ МЕХАНИЗМОВ ТОКСИЧЕСКОГО ЭФФЕКТА ПЕСТИЦИДОВ НА ЩИТОВИДНУЮ ЖЕЛЕЗУ ПОТОМСТВА В УСЛОВИЯХ ИХ ВОЗДЕЙСТВИЯ ЧЕРЕЗ ОРГАНИЗМ МАТЕРИ | 170 |
| 37 | **Boltoyeva Feruza Ganjaboyevna,** POSTKOVID SINDROMDA GIPERKOAGULYATSIYA XOLATINI DIAGNOSTIKASI VA DAVOLASH | 175 |
| 38 | **Abdurasulova Maftuna Alisher qizi,** YANGI TIBBIY TEXNOLOGIYALAR VA DAVOLASH USULLARINI JORIY ETISH | 182 |
| 39 | **Шерманов Абдували Ортикович, Миршарапов Уткур Миршарапович,** ТИП ТЕЛОСЛОЖЕНИЯ И УРОВЕНЬ ГАРМОНИЧНОСТИ ФИЗИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА | 185 |
| 40 | **Ayimbetova Ulzada Maqsetbay qizi,** INAPPROPRIATE CLAIMS FROM NON-EQUIVALENT MEDICATIONS IN BRAIN TUMOR: A POSITION PAPER ENDORSED BY THE EUROPEAN SOCIETY FOR CLINICAL AND ECONOMIC ASPECTS OF POTOLOGY OF BRAIN DISEASES | 190 |